



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**10.00.13 – QIYOSIY VA CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Annotatsiya:

Dastur 10.00.13 – Qiyosiy va chogʻishtirma tilshunoslik mutaxassisliklarining 2020-yilda tasdiqlangan oʻquv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Mirzayev I.K.	–	SamDU, Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, professor
Mirzayev I.K.	–	SamDU, Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrası oʻqituvchisi

Dastur Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yigʻilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Qiyosiy va chogʻishtirma tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning tillararo munosabatlarni, til tizimlarining umumiy va oʻziga xos xususiyatlarini hamda ularning tarixiy va zamonaviy taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq etuvchi muhim yoʻnalishlaridan biridir. Mazkur yoʻnalish doirasida tillarning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari tizimli ravishda oʻrganilib, ular oʻrtasidagi genetik, tipologik, strukturaviy va funksional munosabatlar aniqlanadi.

Qiyosiy tilshunoslikda, asosan, tillarning tarixiy-genetik aloqalari, umumiy manbalari, fonetik va grammatik muvofiqliklari hamda tarixiy taraqqiyot jarayonlari tadqiq etilsa, chogʻishtirma tilshunoslikda turli tillarning muayyan birliklari va kategoriyalari sinxron hamda funksional jihatdan taqqoslanib, ularning oʻxshash va farqli xususiyatlari aniqlanadi. Shu jihatdan mazkur yoʻnalishlar til hodisalarini kompleks va tizimli oʻrganish uchun oʻzaro uzviy metodologik asos yaratadi.

Ixtisoslik dasturi qiyosiy-tarixiy, chogʻishtirma, tipologik, strukturaviy, funksional, semantik, etimologik, korpus va lingvostatistik yondashuvlar asosida olib boriladigan tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslarini qamrab oladi. Dasturda tillarning fonetik-fonologik, leksik, grammatik, semantik, uslubiy va pragmatik sathlarini qiyosiy hamda chogʻishtirma jihatdan tadqiq etish, tillararo muvofiqlik va tafovutlarni aniqlash, ularning yuzaga kelish omillarini izohlash masalalariga alohida eʼtibor qaratiladi.

Mazkur dastur zamonaviy tilshunoslikning yangi ilmiy yondashuvlari asosida qiyosiy va chogʻishtirma tadqiqotlarni amalga oshirish, nazariy xulosalarni amaliy tilshunoslik bilan bogʻlash, tillararo tadqiqotlarning metodologik imkoniyatlarini kengaytirish hamda mustaqil ilmiy izlanish olib borishga zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan.

Qiyosiy va chogʻishtirma tilshunoslik qamrab olgan nazariy maʼlumotlar quyida keltirilgan:

Qiyosiy tilshunoslik fani boʻyicha:

Qiyosiy tilshunoslikning predmeti, maqsadi, vazifalari va nazariy-metodologik asoslari; qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishi, rivojlanishi va asosiy tamoyillari; tillarning genetik jihatdan tasniflanishi va qarindoshlik munosabatlarini aniqlash mezonlari; qarindosh tillardagi fonetik, leksik, morfologik va grammatik muvofiqliklar; fonetik muvofiqliklarning muntazamligi va tovush oʻzgarishlari; umumiy til shakllarini rekonstruksiya qilish tamoyillari; protoforma va etimon tushunchalari; til birliklarining tarixiy taraqqiyoti va divergent jarayonlar; umumiy innovatsiya va arxaik belgilar; qarindosh tillarning leksik tarkibidagi umumiy va xususiy qatlamlar; etimologik tahlilning nazariy

asoslari; morfologik va sintaktik kategoriyalarning tarixiy-qiyosiy tadqiqi; grammatik shakllarning rivojlanishi va funksional o'zgarishlari; tillararo o'zlashuv va kontakt hodisalarining qiyosiy tahlili; qiyosiy tadqiqotlarda tipologik, strukturaviy, areal, etimologik va lingvostatistik yondashuvlardan foydalanish; qiyosiy tilshunoslikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari hamda uning tarixiy tilshunoslik, etimologiya, dialektologiya, areal lingvistika va tipologik tadqiqotlar bilan aloqasi.

Chog'ishtirma tilshunoslik fani bo'yicha:

Chog'ishtirma tilshunoslikning predmeti, maqsadi, vazifalari va tadqiqot tamoyillari; chog'ishtirma tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari; chog'ishtirma tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslari; chog'ishtirma, kontrastiv va qiyosiy yondashuvlarning o'zaro munosabati; tillarni chog'ishtirishning mezonlari, birliklari va darajalari; chog'ishtirma tahlilning strukturaviy, funksional, semantik va kommunikativ tamoyillari.

Tillarni fonetik-fonologik sathda chog'ishtirish: fonema tizimi, unli va undoshlar tarkibi, fonologik oppozitsiyalar, fonetik jarayonlar, urg'u, bo'g'in va intonatsiyaning tillararo xususiyatlari. Leksik-semantik sathda chog'ishtirish: leksik birliklarning semantik tarkibi, ko'p ma'nolilik, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, frazeologik birliklar, leksik-semantik guruhlar hamda tillararo leksik muvofiqlik va tafovutlar.

Morfologik sathni chog'ishtirma o'rganish: so'z turkumlari, grammatik kategoriyalar, grammatik shakllarning hosil bo'lishi va qo'llanishi, morfemik va derivatsion tuzilma, so'z yasash modellari hamda grammatik ma'nolarning turli tillarda ifodalanish usullari. Sintaktik sathda gap qurilishi, so'z birikmalari, sintaktik aloqalar, gap bo'laklari, gap turlari, so'z tartibi, predikativlik va kommunikativ-sintaktik birliklarning chog'ishtirma xususiyatlarini tadqiq etish.

Tillararo semantik va funksional muvofiqlikni aniqlash; shaklan o'xshash, biroq mazmunan farqlanuvchi birliklarni ajratish; ekvivalent, muqobil va qisman muvofiq birliklarning xususiyatlarini belgilash; lakuna, interferensiya va transfer hodisalarini chog'ishtirma tahlil qilish; tillararo o'zaro ta'sirning lingvistik omillarini aniqlash. Lingvistik universalialar, tipologik kategoriyalar va tillarning o'ziga xos strukturaviy belgilarini chog'ishtirish masalalari.

Chog'ishtirma tadqiqotlarda qo'llanadigan asosiy metodlar: kontrastiv tahlil, distributiv, komponent, transformatsion, statistik, funksional-semantik, strukturaviy va tipologik tahlil usullari. Zamonaviy chog'ishtirma tadqiqotlarda korpus lingvistikasi, kognitiv yondashuv, lingvomadaniy va pragmatik tahlil imkoniyatlaridan foydalanish; til birliklarining nutqdagi funksional xususiyatlarini aniqlash; kontekst va kommunikativ vaziyatning tillararo farqlarni belgilashdagi rolini o'rganish.

Chog‘ishtirma tilshunoslikning tarjimashunoslik, terminologiya, lug‘atshunoslik, lingvodidaktika, kompyuter lingvistikasi va boshqa amaliy yo‘nalishlar bilan aloqasi; tillararo ekvivalentlikni aniqlash, tarjima muqobillarini belgilash, ikki va ko‘p tilli lug‘atlar tuzish, til o‘rgatishda yuzaga keladigan interferensiyani aniqlash va bartaraf etishning lingvistik asoslari. Chog‘ishtirma tahlil natijalaridan nazariy va amaliy tilshunoslikda foydalanish imkoniyatlari.

Chog‘ishtirma tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirish, tillararo o‘xshashlik va tafovutlarning lingvistik sabablarini aniqlash, umumiy va xususiy qonuniyatlarni belgilash hamda til tizimlarining o‘ziga xosligini ilmiy asoslash. Chog‘ishtirma tilshunoslikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, fanlararo yondashuvlar va yangi tadqiqot metodlarining mazkur soha taraqqiyotidagi o‘rni.

Tarjimashunoslik fani bo‘yicha:

Tarjimashunoslikning predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. Tarjima nazariyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Tarjima tilshunoslikning mustaqil va fanlararo sohasi sifatida. Tarjima jarayonining lingvistik, kommunikativ, funksional, kognitiv va pragmatik asoslari. Tarjima va qiyosiy-tipologik hamda chog‘ishtirma tilshunoslikning o‘zaro munosabati. Tarjima jarayonida qiyoslanayotgan tillarning fonetik-fonologik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik tizimlaridagi o‘xshashlik, farq va asimmetriya hodisalari. Tillararo ekvivalentlik va muqobillik. To‘liq, qisman va nol ekvivalentlik. Kontekstual ekvivalentlik va funksional muqobillik. Tarjima birliklarining tillararo moslik darajasi.

Leksik tarjima muammolari: ko‘pma’nolilik, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, frazeologik birliklar, terminlar, neologizmlar, realiyalar, atoqli otlar, madaniy xos birliklar va baynalmilal leksikaning tarjimadagi xususiyatlari. Tillararo leksik-semantik nomutanosiblik va uning tarjimada namoyon bo‘lishi. Grammatik tarjima muammolari. Qiyoslanayotgan tillarda so‘z turkumlari, grammatik kategoriyalar, morfologik shakllar va sintaktik konstruksiyalarning mos va farqli jihatlari. Grammatik ekvivalentlik. So‘z turkumlari va gap bo‘laklarining tarjimada almashinuvi. So‘z tartibi, sintaktik aloqa va gap qurilishidagi farqlarning tarjimaga ta’siri. Tarjima transformatsiyalari: o‘rin almashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, qo‘shish, tushirib qoldirish, transpozitsiya va kompensatsiya. Leksik, grammatik va leksik-grammatik transformatsiyalarning qo‘llanish shartlari. Transformatsiyalarning qiyoslanayotgan tillar tizimi bilan bog‘liqligi.

Tarjimaning funksional-stilistik va pragmatik jihatlari. Badiiy, ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik va boshqa funksional uslublarni tarjima qilish xususiyatlari. Tarjimada kommunikativ maqsad, muallif pozitsiyasi, nutq vaziyati,

adresat va kontekst omillarining hisobga olinishi. Pragmatik moslashtirish va uning chegaralari.

Madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima. Lingvomadaniy birliklarning tarjimadagi muammolari. Realizmalar, milliy-madaniy komponentli birliklar va ularning tarjima usullari. Tarjimada milliy o'ziga xoslikni saqlash va kommunikativ moslikni ta'minlash. Qiyosiy-tipologik tarjima tahlili. Tarjima matni va original matnni qiyoslash orqali tillarning universal, tipologik va milliy xususiyatlarini aniqlash. Tarjima materiallaridan cho'g'ishtirma tadqiqotlarda foydalanish. Tarjima korpuslari asosida tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash. Tarjima jarayonida tillararo interferensiya va uning namoyon bo'lish shakllari. Tarjima sifatini baholash mezonlari. Semantik, strukturaviy, funksional, kommunikativ va pragmatik adekvatlik. Tarjimonning lingvistik, lingvomadaniy, kommunikativ va kasbiy kompetensiyasi. Tarjimon faoliyatida ikki tillilik va tillararo vositachilik masalalari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуазизов А.А., Бушуй А.М., Бушуй Т.А., Салиева М.А., Сиддикова И.А. История лингвистической типологии. – Ташкент: 2016. – 176 б.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 608 с.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода / Л.С. Бархударов. – М.: Междунар. Отношения, 1975. – 240 с.
4. Брейс Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский/ Е.В. Брейс. – М.: Изд-во УРАО, 2000. – 207 с.
5. Бушуй Т, Рузикулов Ф. Краткий курс сравнительной типологии. – Ташкент, 2015. – 187 б.
6. Вайбурд М.Л. Реалии как элемент страноведения// Рус. яз. за рубежом. 1972. № 3, – С. 98-100.
7. Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы)/ В.С. Виноградов. – М.: Изд-во ин-та общ. сред. образования РАО, 2001. – 224 с.
8. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – М.: Высш. Шк., 1978. – 350 с.
9. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. 2-е изд., исправ. и доп. – М., 1986. – 415 с.
10. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – Москва: Просвещение, 1989. – 288 с.
11. Комиссаров В. Н. Новые тенденции в переводоведении/ В.Н. Комиссаров// Информационно-коммуникативные аспекты перевода: сб, науч, тр. Ч. 1. Н. – Новгород: НГЛУ им.Н.А. Добролюбова, 1997. – С.167.
12. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода: учеб. Пособие/ В.Н. Комиссаров. – М.; 1999. – 136 с.
13. Комиссаров В. Н. Перевод как объект лингвистического описания/ Комиссаров В. Н.// Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М.: Междунар. отношения, 1978. – С. 3-15.
14. Латышайев Л.К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания/ Л.К. Латышев. – М.: Просвещение, 1981.
15. Ломтев Т.П. Фонология современного русского языка. – М., 1972.
16. Милевский Т. Предпосылки типологического языкознания // Сб. Исследования по структурной типологии. – М., 1963.
17. Паморозская Н.И. Роль слов-реалий в создании культурного фона художественного произведения // Лексика и культура. – Тверь, 1990. – 439 с.

18. Пешковский А.М. Десять тысяч звуков. Опыт звуковой характеристики русского языка как основы для эвфонических исследований//Сб. Методика родного языка, лингвистика, стилистика, поэтика. – Л., 1925.

19. Рецкер А.И. Теория перевода и переводческая практика: Очерки лингвистической теории перевода/ – М., 1974. – 216 с.

20. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т. Фан, 1966. – 380 б.

21. Серебренников Б.А. Вероятностные обоснования в компаративистике. – М., 1974. – 53 с.

22. Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – Киев: Выща шк., 1984. – 241 с.

23. Томахин Г.Д. Реалии в языке и культуре// Иностр.яз. в шк. 1997. №3.

24. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960. – С. 286-299.

25. Федеров А.В. Основы общей теории перевода/ – М., 1983.

26. Халлиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти. – Т., 2018. – 274 б.

27. Ширяев А.Ф. Синхронный перевод / – М., 1979.

28. Ярцева В.Н. Контрастивная грамматика. – М., 1981. – 52 с.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100